

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

### GEOGRAFIK KO'RSATKICHLAR TO'G'RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 21-dekabrda qabul qilingan  
Senat tomonidan 2022-yil 3-fevralda  
ma'qullangan

#### 1-bob. Umumiy qoidalar

##### **1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi va amal qilish sohasi**

Ushbu Qonunning maqsadi geografik ko'rsatkichlarni huquqiy jihatdan muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ushbu Qonunning amal qilishi tovar kelib chiqqan joy nomlarini huquqiy jihatdan muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

##### **2-modda. Geografik ko'rsatkichlar to'g'risidagi qonunchilik**

Geografik ko'rsatkichlar to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining geografik ko'rsatkichlar to'g'risidagi qonunchiligidagi nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

##### **3-modda. Geografik ko'rsatkich tushunchasi**

Tovarni muayyan geografik obyekt hududidan kelib chiqqan tovar sifatida identifikatsiyalovchi belgi geografik ko'rsatkich deb e'tirof etilib, unda tovarning sifati, nom qozonganligi yoki boshqa xususiyatlari (bundan buyon matnda tovarning xususiyatlari deb yuritiladi) uning geografik jihatdan kelib chiqishiga sezilarli darajada bog'liq bo'ladi. Mazkur geografik obyekt hududida tovarni ishlab chiqarishning tovarning xususiyatlarini shakllantirishga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan bosqichlaridan loaqlal bittasi amalga oshirilishi kerak.

##### **4-modda. Geografik ko'rsatkichlarni huquqiy jihatdan muhofaza qilish**

Geografik ko'rsatkichlarni huquqiy jihatdan muhofaza qilish uni ushbu Qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazish asosida, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Chet el geografik ko'rsatkichlarini O'zbekiston Respublikasi hududida muhofaza qilish faqat tegishli belgi o'zi kelib chiqqan mamlakatda muhofaza qilingan taqdirdagina amalga oshiriladi.

##### **5-modda. Geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqi**

Agar geografik ko'rsatkichni ro'yxatdan o'tkazgan shaxs muayyan sifati, nom qozonganligi yoki boshqa xususiyatlari sezilarli darajada uning geografik kelib chiqishiga bog'liq bo'lgan tovari ishlab chiqarayotgan bo'lsa, mazkur shaxs ushbu geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqini oladi.

Ushbu Qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqi xuddi shu geografik obyektda joylashgan va xuddi shunday xususiyatlarga ega bo'lgan tovar ishlab chiqarayotgan boshqa yuridik yoki jismoniy shaxsga ham berilishi mumkin.

##### **6-modda. Geografik ko'rsatkichlarni huquqiy jihatdan muhofaza qilish sohasidagi vakolatli davlat organi**

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi (bundan buyon matnda Agentlik deb yuritiladi) geografik ko'rsatkichlarni huquqiy jihatdan muhofaza qilish sohasidagi vakolatli davlat organidir.

Agentlik:

geografik ko'rsatkichlarni huquqiy jihatdan muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi yagona davlat siyosatini shakllantirish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

geografik ko'rsatkichlarni va geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqini ro'yxatdan o'tkazishga doir talabnomalarni ko'rib chiqish uchun qabul qiladi, ular yuzasidan davlat ekspertizasini o'tkazadi;

geografik ko'rsatkichlarni va geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqini ro'yxatdan o'tkazishni amalga oshiradi;

Geografik ko'rsatkichlarning davlat reyestrini (bundan buyon matnda reyestr deb yuritiladi) yuritadi;

geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqi to'g'risida guvohnoma beradi;

geografik ko'rsatkichni ro'yxatdan o'tkazish va geografik ko'rsatkichlardan foydalanish huquqini berish to'g'risidagi rasmiy ma'lumotlarni e'lon qiladi;

qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradi.

## **2-bob. Geografik ko'rsatkichni ro'yxatdan o'tkazish**

### **7-modda. Geografik ko'rsatkichni ro'yxatdan o'tkazish shartlari**

Geografik ko'rsatkich muayyan geografik obyektda joylashgan va ushbu obyektning nomidan o'zi ishlab chiqarayotgan tovari belgilash uchun foydalanayotgan bir necha yuridik yoki jismoniy shaxsning (alohida hollarda, agar boshqa shaxslar mavjud bo'lmasa yoxud ular talabnomani berishda ishtirok etish istagini bildirmasa, bitta shaxsning) talabnomasiga ko'ra ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin.

Geografik ko'rsatkichni ro'yxatdan o'tkazish uchun talabnoma:

ushbu moddaning **birinchi qismida** ko'rsatilgan yuridik va (yoki) jismoniy shaxslarning manfaatlarini ifodalash uchun vakolatli, birlashma shaklida tashkil etilgan nodavlat notijorat tashkiloti (bundan buyon matnda birlashma deb yuritiladi) tomonidan;

tegishli geografik obyekt joylashgan hududdagi mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organi tomonidan ham berilishi mumkin.

### **8-modda. Geografik ko'rsatkichni yoki geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqini ro'yxatdan o'tkazish uchun talabnoma berish**

Geografik ko'rsatkichni yoki geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqini ro'yxatdan o'tkazish uchun talabnoma (bundan buyon matnda talabnoma deb yuritiladi) yuridik yoki jismoniy shaxs (bundan buyon matnda talabnoma beruvchi deb yuritiladi) tomonidan bevosita yoxud uning patent vakili yoki ishonchli vakili tomonidan davlat axborot tizimlari orqali beriladi.

Talabnoma berilgan sana talabnoma Agentlikka kelib tushgan sanaga qarab belgilanadi.

Talabnoma berilganidan keyin Agentlik talabnoma haqidagi ma'lumotlarni talabnoma kelib tushgan paytdan e'tiboran bir ish kuni ichida o'z rasmiy veb-saytiga joylashtiradi.

### **9-modda. Tovar kelib chiqqan joy nomi uchun talabnomani va ro'yxatdan o'tkazilgan tovar kelib chiqqan joy nomini geografik ko'rsatkich etib o'zgartirish**

Talabnoma beruvchi tovar kelib chiqqan joy nomi uchun talabnomani ekspertiza natijalari bo'yicha qaror qabul qilinguniga qadar geografik ko'rsatkichga doir talabnoma etib o'zgartirishga haqli.

Ro'yxatdan o'tkazilgan tovar kelib chiqqan joy nomi tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqi to'g'risidagi guvohnoma egasining (egalarining) arizasiga ko'ra geografik ko'rsatkich etib o'zgartirishi mumkin.

Tovar kelib chiqqan joy nominining geografik ko'rsatkich etib o'zgartirish bilan bog'liq ishlarni yuritish tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqi to'g'risidagi guvohnoma egasi (egalari) tomonidan mustaqil ravishda, patent vakili yoki ishonchli vakil orqali amalga oshirilishi mumkin.

### **10-modda. Patent vakillari orqali vakillik**

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida doimiy yashaydigan jismoniy shaxslar va chet el yuridik shaxslari geografik ko'rsatkichlarni ro'yxatdan o'tkazishga hamda geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqi to'g'risidagi guvohnomani berishga doir ishlarni, shuningdek bu ishlar bilan bog'liq bo'lган yuridik ahamiyatga molik boshqa harakatlarni Agentlikda ro'yxatdan o'tkazilgan patent vakillari orqali amalga oshiradi.

Patent vakilining vakolatlari ishonchnoma bilan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan, lekin vaqtinchalik uning hududidan tashqarida bo'lgan jismoniy shaxslar O'zbekiston Respublikasi doirasidagi yozishmalar uchun manzilni ko'rsatgan taqdirda, geografik ko'rsatkichlarni ro'yxatdan o'tkazishga va geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqi to'g'risidagi guvohnomani berishga doir ishlarni hamda bu ishlar bilan bog'liq bo'lgan yuridik ahamiyatga molik boshqa harakatlarni patent vakilisiz olib borishi mumkin.

## **11-modda. Talabnomaga doir talablar**

Talabnomaga bitta geografik ko'rsatkichga taalluqli bo'lishi kerak.

Talabnomada quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

geografik ko'rsatkichni yoki geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza;

talabnomada ko'rsatilgan belgi yoki, agar reyestrda ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa, geografik ko'rsatkich;

qaysi tovar turi uchun geografik ko'rsatkichni yoki geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqini ro'yxatdan o'tkazish so'ralayotgan bo'lsa, o'sha tovar turining nomi;

geografik obyektning chegaralaridagi tovar ishlab chiqariladigan joy;

tovarning xususiyatlari u ishlab chiqarilayotgan joyga bog'liq ekanligiga taalluqli ma'lumotlar;

tovarning geografik jihatdan kelib chiqishiga, mazkur geografik obyekt uchun xos bo'lgan tabiiy sharoitlarga va (yoki) inson omillariga sezilarli darajada bog'liq bo'lgan tovar xususiyatlarining tavsifi, shu jumladan tovari ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan boshlang'ich materialning tavsifi, tovarning fizik, kimyoviy, mikrobiologik, organoleptik yoki badiiy xususiyatlari;

agar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan geografik ko'rsatkichlarni ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha davlat xizmati ko'rsatishga doir ma'muriy reglamentda (bundan buyon matnda ma'muriy reglament deb yuritiladi) nazarda tutilgan bo'lsa, talabnomada bayon etilgan qoidalarga va tovarning aniq xususiyatlariга riona etilganligini tasdiqlovchi vakolatli inspeksiya organlarining hamda laboratoriyalarning nomi va joylashgan eri (pochta manzillari).

Talabnomaga quyidagilar ilova qilinishi kerak:

talabnomaga bergenlik uchun patent boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjat;

talabnomaga patent vakili yoki ishonchli vakil orqali berilgan taqdirda talabnomaga beruvchining ishonchnomasi;

agar talabnomaga beruvchi O'zbekiston Respublikasi hududida tovarlar ishlab chiqarayotgan shaxs bo'lsa, talabnomaga beruvchining mazkur geografik obyektda joylashganligini va xususiyatlari ushu geografik obyekt bilan sezilarli darajada bog'liq bo'lgan tovar ishlab chiqarayotganligini tasdiqlovchi hujjatlar;

agar talabnomaga beruvchi O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida tovarlar ishlab chiqarayotgan shaxs bo'lsa, geografik obyekt joylashgan mamlakatda talabnomada bayon etilgan geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjat.

Geografik ko'rsatkichni ro'yxatdan o'tkazish uchun talabnomma birlashma tomonidan berilgan taqdirda, ushu birlashmaga kiruvchi shaxslar tegishli xususiyatlarga ega bo'lgan tovari ishlab chiqarayotganligini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi.

Ilgari ro'yxatdan o'tkazilgan geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqini ro'yxatdan o'tkazishga doir talabnomaga talabnomaga beruvchi reyestrda ko'rsatilgan xususiyatlarga ega bo'lgan tovar ishlab chiqarayotganligini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi.

Talabnomani rasmiylashtirish uchun zarur bo'lgan hujjatlarga doir talablar ma'muriy reglamentda belgilanadi.

## **12-modda. Geografik ko'rsatkichlar sifatida ro'yxatdan o'tkazilmaydigan belgilar**

Quyidagi belgilar geografik ko'rsatkich sifatida ro'yxatdan o'tkazilmaydi:

tovar qaysi geografik obyekt chegarasida dastlab ishlab chiqarilgan yoki fuqarolik muomalasiga kiritilgan va ishlab chiqarilish joyi bilan bog'liq bo'lman muayyan turdag'i tovarning belgisi sifatida O'zbekiston Respublikasida umumiy iste'molga kiritilgan bo'lsa, o'sha geografik obyektning belgisi;

ayni bir turdag'i tovarga nisbatan geografik ko'rsatkich yoki tovar kelib chiqqan joy nomi sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan belgi;

nisbatan ilgariroq ustuvorlikka ega bo'lgan tovar belgisi yoki xizmat ko'rsatish belgisi bilan bir xil yoxud unga aynan o'xshash bo'lgan belgi, agar bunday geografik ko'rsatkichdan foydalanish tovar yoki uni tayyorlovchi xususida iste'molchini chalg'itsa;

o'simlik navining yoki hayvon zotining nomini ifodalovchi belgi, agar bunday geografik ko'rsatkichdan foydalanish tovar xususida iste'molchini chalg'itsa;

tovar yoki uni tayyorlovchi xususida iste'molchini chalg'itadigan belgi;

ushbu Qonunning [11-moddasida](#) nazarda tutilgan talablarga muvofiq bo'lman tovarga nisbatan geografik ko'rsatkich sifatida ro'yxatdan o'tkazish uchun talabnoma berilgan belgi.

### **13-modda. Talabnomaning davlat ekspertizasi**

Talabnomaning davlat ekspertizasi Agentlik tomonidan amalga oshiriladi hamda u rasmiy ekspertizani va talabnomada ifodalangan belgining ekspertizasini o'z ichiga oladi.

Talabnoma beruvchi talabnoma davlat ekspertizasidan o'tkazilishi davrida bu talabnoma yuzasidan qaror qabul qilinguniga qadar o'z tashabbusi bilan talabnoma materiallarini tuzatishga, aniqlashtirishga yoki ularni talabnomani mohiyatan o'zgartirmaydigan materiallar bilan to'ldirishga haqli.

Davlat ekspertizasini o'tkazish jarayonida qo'shimcha materialgarsiz ekspertiza o'tkazish mumkin bo'lmasa, Agentlik talabnoma beruvchidan bunday materiallarni so'rab olishga haqli.

Davlat ekspertizasining so'roviga ko'ra qo'shimcha materiallar so'rov talabnoma beruvchiga jo'natilgan sanadan e'tiboran uch oy ichida taqdim etilishi kerak. Talabnoma beruvchining iltimosiga ko'ra mazkur muddat ko'pi bilan olti oyga uzaytirilishi mumkin. Agar talabnoma beruvchi so'ralayotgan qo'shimcha materiallarni yoki ularni taqdim etish muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rsatilgan muddatda taqdim etmasa, talabnoma chaqirib olingan deb hisoblanadi.

Talabnoma beruvchi tomonidan o'tkazib yuborilgan muddatlar talabnoma beruvchining mazkur muddatlar tugaganidan ikki oydan kechiktirmay bergen iltimosnomasiga binoan Agentlik tomonidan tiklanishi mumkin.

Talabnomani davlat ekspertizasidan o'tkazish tartibi ma'muriy reglamentda belgilanadi.

### **14-modda. Talabnomaning rasmiy ekspertizasi**

Talabnomaning rasmiy ekspertizasi talabnoma Agentlikka berilgan sanadan e'tiboran o'n besh kunlik muddatda amalga oshiriladi.

Rasmiy ekspertiza chog'ida talabnomaning mazmuni, zarur hujjatlarning mavjudligi, shuningdek ularning belgilangan talablarga muvofiqligi tekshiriladi.

Talabnoma beruvchiga rasmiy ekspertiza natijalariga ko'ra Agentlikning talabnomani ko'rib chiqish uchun qabul qilish to'g'risidagi yoxud uni rad etish haqidagi qarori ma'lum qilinadi.

### **15-modda. Talabnomada ifodalangan belgining ekspertizasi**

Talabnomada ifodalangan belgining ekspertizasi talabnoma ko'rib chiqish uchun qabul qilinganligi to'g'risidagi qarorga muvofiq, mazkur qaror qabul qilinganidan keyin bir oy ichida Agentlik tomonidan o'tkaziladi.

Talabnomada ifodalangan belgining ekspertizasi chog'ida talabnomada ifodalangan belgining ushbu Qonun [4, 5, 7](#) va [11-moddalari](#) qoidalariga muvofiqligi tekshiriladi.

Talabnomada ifodalangan belgining ekspertizasi natijalariga ko'ra Agentlikning geografik ko'rsatkichni yoki geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqini ro'yxatdan o'tkazish haqidagi yoxud uni ro'yxatdan o'tkazishni rad etish to'g'risidagi qarori qabul qilinadi, talabnoma beruvchi bu haqda xabardor qilinadi.

## **16-modda. Davlat ekspertizasi natijalari ustidan shikoyat berish**

Talabnoma beruvchi davlat ekspertizasi natijalari ustidan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Apellatsiya kengashiga (bundan buyon matnda Apellatsiya kengashi deb yuritiladi) qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran uch oy ichida shikoyat berishga haqli.

Davlat ekspertizasi natijalari ustidan Apellatsiya kengashiga shikoyat berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Talabnoma beruvchi Apellatsiya kengashining qarori ustidan qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran olti oy ichida sudga shikoyat berishga haqli.

## **17-modda. Talabnomadan voz kechish yoki uni chaqirib olish**

Talabnoma beruvchi talabnomadan uni ko'rib chiqishning istalgan bosqichida, lekin geografik ko'rsatkichni yoki geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqini ro'yxatdan o'tkazish sanasidan kechiktirmay voz kechishi yoki uni chaqirib olishi mumkin.

## **18-modda. Geografik ko'rsatkichni yoki geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqini ro'yxatdan o'tkazish**

Davlat ekspertizasi natijalari asosida Agentlik geografik ko'rsatkichni yoki geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqini reyestrda ro'yxatdan o'tkazishni patent boji to'langanligi haqidagi hujjat olingen sanadan e'tiboran uch ish kuni ichida amalga oshiradi.

Reyestrga kiritiladigan ma'lumotlar tarkibi ma'muriy reglamentda belgilanadi.

## **19-modda. Geografik ko'rsatkich yoki geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqi ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qilish**

Geografik ko'rsatkich yoki geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqi ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar, shu jumladan tovarning xususiyatlari to'g'risidagi axborot Agentlikning o'z rasmiy veb-saytiga ham joylashtiriladigan rasmiy axborotnomasida e'lon qilinadi. E'lon qilinadigan ma'lumotlarning tarkibi Agentlik tomonidan belgilanadi.

## **20-modda. Geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqi to'g'risidagi guvohnoma**

Geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqi to'g'risidagi guvohnoma (bundan buyon matnda guvohnoma deb yuritiladi) uning egasining geografik ko'rsatkichdan guvohnomada ko'rsatilgan tovar turiga nisbatan foydalanish huquqini tasdiqlaydi.

Guvohnoma geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqi reyestrda ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin uch ish kuni ichida Agentlik tomonidan beriladi. Guvohnomaning shakli va unda ko'rsatiladigan ma'lumotlar tarkibi Agentlik tomonidan belgilanadi.

## **21-modda. Geografik ko'rsatkichni muhofaza qilish muddati hamda guvohnomaning amal qilish muddati**

Geografik ko'rsatkich ushbu Qonun talablariga javob beradigan tovari ishlab chiqarish imkoniyati mavjud bo'lgan butun vaqt davomida muhofaza qilinadi.

Guvohnoma talabnoma berilgan sanadan e'tiboran o'n yil davomida amal qiladi.

## **22-modda. Guvohnomaning amal qilish muddatini uzaytirish**

Guvohnomaning amal qilish muddati guvohnoma amal qilayotgan oxirgi yil ichida uning egasi tomonidan berilgan arizaga ko'ra har safar o'n yilga uzaytirilishi mumkin.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan arizaga quydagilar ilova qilinishi kerak:

patent boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjat;

patent vakili yoki ishonchli vakil orqali ariza berilgan taqdirda talabnoma beruvchining ishonchnomasi;

geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqiga ega bo'lgan shaxs mazkur geografik obyektda ekanligini va reyestrda ko'rsatilgan xususiyatlarga ega bo'lgan tovari ishlab chiqarayotganligini tasdiqlovchi hujjat.

Guvohnomaning amal qilish muddatini uzaytirish haqidagi yozuv ariza berilgan sanadan e'tiboran uch kun ichida reyestrga kiritiladi.

Ariza berishning ushbu modda birinchi qismida ko'rsatilgan muddati guvohnomaning amal qilish muddati tugaganidan keyin olti oy ichida guvohnoma egasi bergan iltimosnomaga ko'ra